Yangi Zelandiya o‘g‘itlarni qo‘llash uchun sun’iy intellektdan foydalanadi

// 14.04.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yangi-zelandiya-o-g-itlarni-qo-llash-uchun-sun-iy-intellektd



Yangi Zelandiyada joylashgan Ballance Agri-Nutrients kompaniyasi SpreadWise nomli yangi raqamli vositani e’lon qildi. U o‘g‘itlash jarayonini optimallashtirish uchun sun’iy intellekt va geomaydon xaritalashdan foydalanadi.

Kompaniya ma’lumotlariga ko‘ra, dastur yaylovlar unumdorligini pasaytirmasdan o‘g‘it sarfini 10 foizga kamaytirishga yordam beradi.

SpreadWise qishloq xo‘jaligi yerlarining batafsil xaritalarini yaratish imkonini beradi. U chorvaning harakati tufayli ozuqa moddalarining taqsimlanishiga tabiiy ravishda ta’sir qiluvchi suv yo‘llari kabi muhim obyektlarga e’tibor qaratadi. Sun’iy intellekt yordamida ushbu vosita qo‘shimcha o‘g‘itlash kerak bo‘lmagan joylarni aniqlaydi. Kompaniya vakillarining bildirishicha, bu ozuqa moddalarining yanada aniq taqsimlanishini ta’minlaydi.

SpreadWise MyBallance raqamli platformasi bilan ham integratsiyalasha oladi. Bu fermerlarga raqamli xaritalar yordamida o‘g‘itlarni qo‘llashni boshqarish imkonini beradi. Foydalanuvchilar turli hududlarga ozuqa moddalarining turli xil meyorlarini vazifa sifatida berishlari mumkin. Bu ozuqa moddalariing optimal taqsimlanishini ta’minlaydi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati